



“EKSTREMISTIK MATN AVTORIZATSIYASI: LINGVISTIK-EKSPERT
YONDASHUV”

Abror Kurbonmuratov

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tadqiqotchisi.

Annotatsiya: Mazkur tezis ekstremistik mazmundagi matnlarda mualliflikni aniqlash masalasiga bag'ishlangan bo'lib, lingvistik-ekspert yondashuv asosida ekstremistik matn avtorizatsiyasining nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekstremistik matn avtorizatsiyasi muallif shaxsiga xos barqaror lingvistik belgilarni aniqlashga qaratilgan kompleks jarayon sifatida talqin etiladi. Leksik-semantik, grammatik, stilistik va pragmatik ko'rsatkichlarning avtorizatsiya jarayonidagi roli ochib beriladi. Shuningdek, muallif pozitsiyasi, kommunikativ niyat va nutqiy ta'sir strategiyalari ekstremistik matnlarda mualliflikni aniqlashning muhim mezonlari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sud-lingvistik ekspertiza amaliyotida hamda ekstremistik faoliyatni aniqlash va oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan xulosalarni ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin.

Kalit so'zlar: ekstremistik matn, avtorizatsiya, mualliflikni aniqlash, lingvistik ekspertiza, nutqiy ta'sir, pragmatika, diskurs.

Zamonaviy axborot makonida ekstremistik mazmundagi matnlarning anonim yoki soxta akkauntlar orqali tarqatilishi ularning muallifligini aniqlash masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammoga aylantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan ekstremistik matn avtorizatsiyasi — ya'ni matn muallifining individual-lingvistik xususiyatlarini aniqlash va ehtimoliy muallif doirasini belgilash sud-lingvistik ekspertizaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mazkur tezisda ekstremistik matn avtorizatsiyasining nazariy asoslari va lingvistik mezonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda avtorizatsiya tushunchasi muallif shaxsiga xos bo'lgan barqaror til belgilarini aniqlashga qaratilgan kompleks lingvistik jarayon sifatida talqin etiladi. Ushbu jarayonda leksik-semantik, grammatik, stilistik va pragmatik ko'rsatkichlar asosiy tahlil ob'ekti sifatida qoraladi.

Ekstremistik matnlarda muallif avtorizatsiyasini aniqlashda, avvalo, leksik tanlov muhim ahamiyat kasb etadi. Muallifning ma'lum so'z va iboralarga ustuvorlik berishi, baholovchi leksikadan foydalanish darajasi, diniy, siyosiy yoki mafkuraviy terminlarning qo'llanish chastotasi uning individual til odatini aks ettiradi. Shuningdek, metafora, shiorlar va takroriy formulalar mualliflik uslubining muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Grammatik va sintaktik darajada gap tuzilishi, murakkab yoki sodda konstruksiyalarga moyillik, buyruq va shart maylining qo'llanishi, shuningdek, nutqning emotsional-intensivligi muallifning kommunikativ strategiyasini ochib beradi.

Ayniqsa, ekstremistik matnlarda imperativ birliklarning chastotasi va adresatga yo'naltirilgan nutq aktlari avtorizatsiya jarayonida muhim indikator sifatida qoraladi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, muallifning matndagi pozitsiyasi, “biz – ular” oppozitsiyasini qurish usuli, adresatga ta'sir ko'rsatish strategiyasi va kommunikativ niyati



avtorizatsiya uchun muhim dalil hisoblanadi. Ekstremistik matnlarda muallif ko'pincha o'zini "jamo'a nomidan so'zlovchi" yoki "haqiqat tashuvchisi" sifatida namoyon etadi, bu esa mualliflik obrazini aniqlash imkonini beradi.

Tezida ta'kidlanishicha, ekstremistik matn avtorizatsiyasi alohida til birliklariga tayangan holda emas, balki matnlar majmui, takrorlanuvchi lingvistik belgilar va kontekstual uyg'unlik asosida amalga oshirilishi lozim. Bu yondashuv subyektiv xulosalarning oldini olishga va ekspert xulosalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ekstremistik matn avtorizatsiyasi lingvistik ekspertizaning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u ekstremistik faoliyatni aniqlash, uning manbalarini belgilash va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini ilmiy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muhim ahamiyat kasb etadi.